


Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik savodxonlikni shakllantirish





3-mavzu:
Suv va chiroqni
nega o'chirish
kerak?



3.1. Mashg'ulotning o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulotning maqsad va vazifasi	Ta'lim beruvchi faoliyati: • Suv va elektr energiyasining hayotdagi ahamiyatini sodda misollar orqali tushuntiradi. • Suv va chiroqni isrof qilish oqibatlarini ko'rsatadi. • Suvni tejash va chiroqni o'chirish bo'yicha ijobiy odatlar shakllantirishga yo'naltiradi.	Ta'lim oluvchilar uchun kutilayotgan natijalar: • Suvni tejash nima ekanini biladi. • Suv va chiroqni ortiqcha yoqib qo'ymaslikning ahamiyatini tushunadi. • Energiyani tejashga harakat qiladi ("Yosh energiya yordamchisi").
O'quv jarayoni mazmuni va mashg'ulotni amalga oshirish texnologiyasi	• Kirish – qiziqtirish, qizitish • Asosiy faoliyat – amaliy o'yinlar • Yakun – rag'bat	Shakl: STEAM + interfaol o'yinli mashg'ulot Metod: Tajriba, muammoli savol, suhbat, rasmi taqqoslash, guruhli ish, o'yin Vosita: Suv idishlari, chiroq (lampochka), rasm kartochkalar, belgi kartalari, rangli qog'oz, marker O'qitish sharoiti: Yorug' xona, suv bilan tajriba burchagi, xavfsiz chiroq, guruhli ish uchun stol-stullar.

3.1. Mashg'ulotning texnologik xaritasi

Kirish qismi (5 daqiqa)	Tarbiyachi faoliyati: Savol beradi: “Bilasizmi, nima uchun suvni bekorga oqizmaslik kerak?” “Nega xonadan chiqqanda chiroqni o’chiramiz?” Ikkita rasm ko’rsatadi va bolalardan farqni aytishni so’raydi.	Bolalar faoliyati: O’z fikrlarini aytadilar: “Suv tugab qolishi mumkin”, “Chiroqni o’chirsa yaxshi”.
Asosiy faoliyat (18 daqiqa)	1) Tajriba “Suvning qadri bor” Bir idishda 1 litr suv – “Bir kunda ichadigan suvimiz”. Boshqa idishda tomchilab turgan kran – “Isrof bo’layotgan suv”. “Mana shu tomchilar bir kunda qancha suv bo’lishini bilasizmi?” 2) Tajriba “Chiroq yoqilsa – elektr sarflanadi” - Bir chiroqni yoqadi → “Issiq bo’lyaptimi? Nur beryaptimi?” - Chiroqni o’chiradi → “Elektr sarflanmayapti.”	- Tomchilab turgan suv ham katta miqdorda yo’qotishga olib kelishi haqida fikrlaydilar. - Chiroqni bekor yoqib qo’yish elektrni isrof qilishini tushunadilar.
Yakuniy qism (7 daqiqa)	- Interfaol o’yin yakunlari. - Qoidalar ishlab chiqish. - Rag’batlantirish.	- Xulosa. - Ko’nikmani qo’llay olish.



“To‘g‘ri – noto‘g‘ri” o‘yini

Tarbiyachi rasm ko‘rsatadi, bolalar ✓ yoki ✗ belgisini ko‘tarad

Oqib turgan suv – ✗

Chiroqni o‘chirish – ✓

Xonada hech kim yo‘q, lekin chiroq yonib turibdi – ✗

Suvni faqat qo‘lni yuvayotganda ochish – ✓

Tish yuvishda 1 stakan suvdan foydalanish – ✓

Toza ichimlik suvini supurganda yerga sepish – ✗

TARQATMALI MATERIAL UCHUN

Guruh ishi: “Suv va chiroq qoidalari”

Bolalar 2 guruhga bo‘linadi:

1-guruh: “Suvni tejash” qoidalari ishlab chiqishadi.

Suv ochiq qolmasin!

Tish yuvayotganda suvni o‘chir!

Suvni to‘kma!


Suvning har tomchisi qadrli!


2-guruh: “Chiroqni tejash” qoidalari.

Xonadan chiqsang – chiroqni o‘chir!

Undan foydalanmaganda yoqma!

Kunduzi derazani och – tabiiy yorug‘lik yetarli!





Amaliy STEAM faoliyati

Bolalar “Energiya yordamchilari belgisi”ni tayyorlaydilar:

- Suvni tejovchi tomchi belgisi 💧
- Chiroqni o‘chiruvchi bola belgisi 💡

Tarbiyachi yordamida rangli qog‘oz, markerlar bilan yaratiladi.

Interfaol yakun

Bolalar jumalani tugatadi:

- “Men suvni bekorga oqizmayman.”
- “Men chiroqni yoritish uchun kerak bo‘lganda yoqaman.”
- “Men tabiat va energiyani asrayman.”

Rag‘bat

Har bir bolaga “Yosh energiya yordamchisi” yorlig‘i topshiriladi.

